

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

37 435
113,3 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

36 444
111,8 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020-yilda)



1 737
47,3 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida molmulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar- aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yilning yanvar-aprel oylarida 1737 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1094 ta, xususiy korxonalar – 296 ta, oilaviy korxonalar – 252 ta, muassasalar – 26 ta va boshqalar – 69 tani tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (1-may holatiga ko'ra)



- Dehqonchilik, chovachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




- Ishlab chiqarish sanoati
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020-yil 1-may holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 8,0 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 112,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 112,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 127,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 116,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3,0 mingtni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 117,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 55,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 116,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 11,4 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 119,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 32,7 %) o'sishidir.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-may holatiga ko'ra royxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'onashahar (17,8 %), Qo'qon shahar (13,2 %), Marg'ilon shahar (10,1 %), Uchko'prik tumani (5,3 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,5 %), Quvay tumani (4,5 %), O'zbekiston tumani (4,5 %), Buvayda tumani (4,4 %), Toshloq tumani (4,2 %), Farg'onatumi (3,8 %), Bag'dod tumani (3,5 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shstepta tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,1 %), Beshariq tumani (3,1 %), Furqat tumani (2,4 %), So'xtumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,9 %), Qo'qon shahar (11,6 %), Marg'ilon shahar (10,0 %), Uchko'prik yumani (5,3 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Oltiariq tumani (5,1 %), Quva tumani (5,5 %), O'zbekiston tumani (4,6 %), Buvayda tumani (4,6 %), Toshloq tumani (4,0 %), Farg'ona tumani (4,7 %), Bog'dod tumani (4,9 %), Rishton tumani (4,5 %), Qo'shtepa tumani (2,7 %), Quvasoy shahar (4,6 %), Beshariq tumani (3,0 %), Furqat tumani (2,3 %), So'x tumani (2,0 %), Yozyovon tumani (2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Oilaviy korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra 4,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,6 mingtaga yoki 118,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 116,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 0,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 335 taga yoki 43,0 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	2 355	3 296	3 821
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	220	260	269
Sanoat	1 146	1 510	1 708
Qurilish	30	31	51
Savdo	317	629	781
Tashish va saqlash	54	70	76
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	316	449	529
Axborot va aloqa	31	28	32
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	25	42
Boshqa turlar	224	294	333

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020-yil 1-may holatiga ko'ra 439 tani tashkil etib, ulardan 429 tasi yoki 98,0 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 100 taga yoki 133,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 22 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	144	163	218	327	429
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	4	19	28
Sanoat	104	115	155	192	243
Qurilish	4	2	5	7	12
Savdo	12	15	25	57	75
Tashish va saqlash	2	4	4	7	12
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	7	9	14	15
Axborot va aloqa	1	3	2	4	4
Sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	5	5	7	10
Boshqa turlar	7	10	9	20	30

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	439	292	147
Oltiariq tumani	19	12	7
Qo'shstepta tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	9	8	1
Buvayda tumani	9	8	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	16	9	7
Uchko'priq tumani	14	8	6
Rishton tumani	11	9	2
So'x tumani	5	3	2
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	21	19	2
Farg'ona tumani	24	13	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	5	2	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	150	101	49
Qo'qon shahar	59	35	24
Quvasoy shahar	26	21	5
Marg'ilon shahar	20	15	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona shahrida 150 ta (umumiyligi miqdoridagi ulushi 34,2 %), Qo'qon shahar 59 ta (13,4 %), Quvasoy shahar 26 tani (5,9 %), Farg'ona tumani 24 ta (5,5 %), Qo'shstepta tumani 8 ta (1,8 %), Beshariq tumani 6 ta (1,4 %) hamda So'x tumanida 5 tani (1,1 %) tashkil etadi.


**Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	110	84	26
Qozog'iston Respublikasi	13	10	3
Ozarbayjon Respublikasi	5	3	2
Qirg'iz Respublikasi	28	25	3
Tojikiston Respublikasi	4	4	
Turkmaniston Respublikasi	1		1
Ukraina Respublikasi	4	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	101	54	47
Turkiya Respublikasi	40	25	15
Janubiy Koreya Respublikasi	37	22	15
Boshqalar	96	62	34


O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Farg'ona viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 25,1 %, Qozog'iston Respublikasi 3,0 %, Xitoy Xalq Respublikasi 23,0 %, Qirg'iz Respublikasi 4,4 % va Turkiya Respublikalari 9,1 % ga to'g'ri kelmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.05.2019 jamiga nisbatan %
	01.05.2019-yil	01.05.2020-yil	
Farg'ona viloyati	26 689	30 422	100,0
Oltiariq tumani	1 168	1 356	4,5
Qo'shtepa tumani	824	921	3,0
Bag'dod tumani	869	1 024	3,4
Buvayda tumani	1 185	1 352	4,4
Beshariq tumani	719	828	2,7
Quva tumani	1 113	1 277	4,2
Uchko'prik tumani	1 446	1 620	5,3
Rishton tumani	719	849	2,8
So'x tumani	609	670	2,2
Toshloq tumani	1 183	1 344	4,4
O'zbekiston tumani	1 176	1 321	4,3
Farg'ona tumani	864	1 054	3,5
Dang'ara tumani	1 299	1 489	4,9
Furqat tumani	579	681	2,2
Yozyovon tumani	505	580	1,9
Farg'ona shahar	4 908	5 471	18,1
Qo'qon shahar	3 836	4 268	14,0
Quvasoy shahar	776	953	3,1
Marg'ilon shahar	2 911	3 364	11,1

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-aprel oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayatganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with various statistical reports like "Elon qilish taqvimni", "Metamalumotlar", etc. The central part of the page shows a dropdown menu with options like "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxonalar pasporti". The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as "Aholini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relizlari", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'onona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 249-87-34**